Davlat xaridlari davlat boshqaruvi tizimida muhim o'rin tutadi, chunki ular orqali davlat organlari, ijtimoiy soha muassasalari, infratuzilma loyihalari va aholining ehtiyojlari ta'minlanadi. Ushbu soha byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, xarid tartib-taomillarining shaffofligi va samaradorligi nafaqat davlat xizmatlari sifatiga, balki jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonch darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra, IHTT mamlakatlarida davlat xaridlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 13 foizini tashkil etadi, bu esa mazkur sohaning ko'lami va iqtisodiyot uchun ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi (OECD, 2023).

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ko'plab mamlakatlarda davlat xaridlari korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Bu yirik moliyaviy oqimlar, tartib-taomillarning murakkabligi, ko'plab buyurtmachilar va yetkazib beruvchilarning ishtiroki, shuningdek, g'olibni tanlash jarayoniga subyektiv ta'sir ko'rsatish

imkoniyati bilan bog'liq. IHTT ta'kidlashicha, xaridlarning raqamli transformatsiyasi xarid jarayoniga bo'lgan yondashuvni o'zgartirmoqda: davlatlar alohida elektron vositalardan yanada bog'langan, samarali va foydalanuvchiga yo'naltirilgan raqamli tizimlarga o'tmoqda (OECD, 2025).

O'zbekiston uchun davlat xaridlarini raqamlashtirish sohasidagi xorijiy tajribani o'rganish nafaqat amaliy, balki ilmiy-nazariy ahamiyatga ham ega. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida ochiqlik, shaffoflik, raqobat, xolislik va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillar mustahkamlangan, shuningdek, davlat xaridlarining elektron tizimlaridan foydalanish nazarda tutilgan (Republic of Uzbekistan, 2021). Biroq ushbu tamoyillarning real korrupsiyaga qarshi ta'siri elektron platformaning mavjudligi bilan emas, balki xarid axborotining sifati, ma'lumotlarning qayta ishlanishi, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, shartnoma ijrosini kuzatish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining uzviy ishlashi bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi xorijiy davlatlarda davlat xaridlarini raqamlashtirish orqali korrupsiya

xavflarini kamaytirish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish va ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish bo'yicha aniq huquqiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi: davlat xaridlarini raqamlashtirishga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish; AQSH, Yevropa Ittifoqi/Germaniya va Singapur tajribasini solishtirish; elektron xaridlarning korrupsiyaga qarshi real imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash; O'zbekiston tizimidagi asosiy muammolarni tizimli baholash; xorijiy tajribani joriy etishning bosqichlari va huquqiy mexanizmlarini asoslash.

### Asosiy qism

Bugungi kunda davlat xaridlarini raqamlashtirish korrupsiya xavflarini kamaytirishning eng samarali omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Uning ahamiyati faqat xarid tartib-taomillarini elektron shaklga o'tkazish bilangina cheklanmaydi, balki buyurtmachi, xarid ishtirokchisi, platforma operatori va nazorat qiluvchi organning har bir harakati qayd etiladigan, saqlanadigan hamda tekshirilishi mumkin bo'lgan shaffof raqamli muhitni shakllantirishdan iborat. An'anaviy qog'oz shaklidagi modeldan farqli ravishda, elektron tizim raqamli iz yaratadi. Bu esa audit, monitoring va ehtimoliy huquqbuzarliklarni tekshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi (Dema, 2015).

Ko'rib chiqilayotgan mavzuni yanada to'liq ochib berish maqsadida maqolada tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-huquqiy, tizimli, statistik-tahliliy va funksional yondashuvlarga asoslandi. Qiyosiy-huquqiy usul AQSH, Yevropa Ittifoqi/Germaniya va Singapur davlat xaridlari tizimlarida qo'llanayotgan raqamli vositalarni solishtirish imkonini berdi. Tizimli usul xarid jarayonini rejalashtirish, e'lon qilish, takliflarni qabul qilish, baholash, shartnoma tuzish, ijroni nazorat qilish, to'lov va audit bosqichlari bo'yicha yagona sikl sifatida o'rganishga xizmat qildi. Statistik-tahliliy usul OECD (IHTT), GAO, European Commission va O'zbekiston rasmiy manbalarida keltirilgan ko'rsatkichlarni baholashda qo'llandi. Funksional usul esa har bir raqamli mexanizmning korrupsiya xavfini kamaytirishdagi amaliy vazifasini — axborotni ochish, inson omilini cheklash, xavfni aniqlash, qarorlarni qayd etish va nazoratni kuchaytirish jihatidan tahlil qilishga yordam berdi.

Mazkur usullarning qo'llanishi nafaqat davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy amaliyotni o'rganish, balki uning korrupsiyaga qarshi salohiyatini ilmiy nuqtayi nazardan baholash imkonini ham beradi. Xususan, elektron xaridlarning yuqori samaradorligi xorijiy mualliflar tadqiqotlarida ham alohida ta'kidlangan. Jumladan, S. Lewis-Faupel, Y. Neggers, B. Olken va R. Pande Hindiston va Indoneziya misolida elektron xaridlar ishtirokchilarning axborotdan foydalanish imkoniyatini oshirishi, mansabdor shaxslar bilan bevosita aloqalarni kamaytirishi va xarid natijalarining sifatini yaxshilashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mualliflar raqamlashtirishning o'zi har doim ham narxlarning pasayishiga olib kelmasligini, balki uning samaradorligi tizim sifati, raqobat darajasi, protseduralarning shaffofligi hamda nazoratning ta'sirchanligiga bevosita bog'liq ekanini qayd etadilar (Lewis-Faupel et al., 2016).

Tadqiqot obyekti sifatida davlat xaridlarini raqamlashtirish jarayonida shakllanadigan huquqiy munosabatlar, elektron xarid platformalari faoliyati, ochiq ma'lumotlar va korrupsiya xavflarini aniqlash indikatorlari belgilangan. Tadqiqot predmeti esa xorijiy mamlakatlarda elektron xarid vositalari orqali shaffoflik, raqobat va hisobdorlikni ta'minlash usullari hamda ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlaridan iborat. Jarayonlarni baholashda ma'lumotlarning ochiqligi, tizimlarning standartlashtirilishi, platformalararo integratsiya, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, shartnomalar ijrosini monitoring qilish hamda jamoatchilik nazorati uchun qulaylik darajasi tahlil mezonlari sifatida olindi.

Ushbu kontekstda korrupsiya xavflarini aniqlashga qaratilgan raqamli vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. F. Decarolis va C. Giorgantonio davlat xaridlaridagi korrupsion "qizil bayroqlar" bo'yicha olib borgan tadqiqotida miqdoriy indikatorlar va mashinali tahlil usullari shubhali xarid amaliyotlarini aniqlashda qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda mualliflar xavfning alohida belgilari izolyatsiya qilingan holda baholanmasligi kerakligini ta'kidlaydilar. Ularni xarid konteksti, soha xususiyatlari, ishtirokchilar soni, baholash mezonlari, shartnoma shartlaridagi o'zgarishlar va buyurtmachining xatti-harakatlarini hisobga olgan holda tahlil qilish zarur (Decarolis & Giorgantonio, 2022).



Shu bilan birga, raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri xarid jarayonida inson omilini kamaytirishdir. An'anaviy tizimda qarorlarning katta qismi mansabdor shaxslarning subyektiv ixtiyoriga bog'liq bo'lishi mumkin edi: kimga axborot berish, texnik topshiriqni qanday shakllantirish, arizalarni qanday baholash va shartnomani qanday shartlarda o'zgartirish kabi masalalarda bunday omil mavjud bo'lgan. Elektron platformalar tartib-taomillarni standartlashtirish, ayrim bosqichlarni avtomatlashtirish, yagona talablarni belgilash va barcha ishtirokchilarning xarid axborotidan teng foydalanishini ta'minlash imkonini beradi. Bu davlat xaridlari tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda tartib-taomillar natijalariga norasmiy ta'sir ko'rsatish ehtimolini kamaytiradi (OECD, 2023).

Davlat xaridlari haqidagi ma'lumotlarning ochiq foydalanish uchun e'lon qilinishi katta ahamiyatga ega. Jamiyat, biznes tuzilmalari, jurnalistlar va ekspertlar hamjamiyati xarid rejalari, tender hujjatlari, ishtirokchilar va g'oliblar tarkibi, shartnoma qiymati, unga kiritilgan o'zgartirishlar hamda uning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlardan erkin foydalana olishi xarid tizimining shaffofligi va hisobotdorligini ta'minlaydi.

Ochiq ma'lumotlar tizimi yagona yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomalar, muayyan ishtirokchining tizimli ravishda g'olib bo'lishi (monopolistik tendensiyalar), xaridlarni sun'iy ravishda qismlarga bo'lish, narxlarning asossiz ravishda oshirilishi, shartnoma shartlarining qayta-qayta o'zgartirilishi yoki texnik hujjatlarda raqobatni cheklovchi talablarning mavjudligi kabi korrupsion xavf-xatarlarni hamda shubhali belgilarni aniqlash imkonini beradi (Open Government Partnership, 2023).

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarini raqamlashtirish jarayoni xaridning butun hayotiy davrini qamrab olgandagina yuqori samaradorlikka erishiladi. Bunda faqatgina xarid e'lonini joylashtirish yoki ariza topshirish jarayonini elektron shaklga o'tkazish bilan cheklanish yetarli emas. Agar raqamli tizim xaridlarni rejalashtirish, e'lon qilish, takliflarni taqdim etish va baholash, shartnoma tuzish, uning ijrosini nazorat qilish, tovar hamda xizmatlarni qabul qilish, hisob-kitoblarni amalga

oshirish va keyingi audit bosqichlarini to'liq qamrab olsa, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi sezilarli darajada kuchayadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT/OECD) xaridlarni raqamlashtirish jarayoni – tizimlar integratsiyasi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlar tahliliga asoslangan kompleks tizim sifatida rivojlanishi lozimligini ta'kidlaydi (OECD, 2025).

AQSH tajribasi ochiq ma'lumotlar, raqamli hisobot va federal xarid tizimlarini integratsiya qilish nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiqdir. Bu borada asosiy raqamli vosita sifatida SAM.gov – AQSH hukumatining rasmiy portali faoliyat yuritadi. Ushbu portal federal xarid imkoniyatlarini izlash, yetkazib beruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, shartnoma ma'lumotlari bilan ishlash hamda xarid jarayonlariga oid axborotlarni e'lon qilish uchun qo'llanadi. Portalning "Contract Opportunities" (Shartnoma imkoniyatlari) bo'limi orqali bozor ishtirokchilari dastlabki xabarnomalar, tender e'lonlari, shartnomalar imzolanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, yagona yetkazib beruvchidan amalga oshiriladigan xaridlar haqidagi axborotni erkin qo'lga kiritishlari mumkin (SAM.gov, 2026a).

Shu bilan birga, SAM.gov nafaqat axborot funksiyasini bajaradi, balki shartnoma ma'lumotlarining manbayi sifatida ham xizmat qiladi. Portalda ma'lumotlarni yuklab olish, hisobotlar shakllantirish va API orqali ulanish imkoniyatlari mavjud. Bu davlat, biznes, ekspertlar hamjamiyati va jamiyat tomonidan xaridlarni tahlil qilish uchun sharoit yaratadi. Bunday yondashuv shaffoflikni oshiradi, yetkazib beruvchilarning davlat buyurtmalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi hamda shartnomalarni yopiq tarzda taqsimlash xavfini kamaytiradi (SAM.gov, 2026b).

AQSHda federal xarajatlar bo'yicha ochiq ma'lumotlar tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. U.S. Government Accountability Office ma'lumotlariga ko'ra, 2024-moliya yilida AQSH federal hukumati taxminan 755 milliard AQSH dollari miqdorida shartnoma majburiyatlarini olgan. Federal xaridlarning bunday ko'lamini e'lon qilinayotgan xarid ma'lumotlarining sifati, to'liqligi va o'z vaqtida taqdim etilishini doimiy nazorat qilishni talab qiladi. Chunki aynan ma'lumotlar-

ning ochiqligi byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanish xavflarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi (U.S. Government Accountability Office, 2024).

Yevropa tajribasi, jumladan, Germaniya amaliyoti, ko'p darajali boshqaruv va huquqiy tartibga solish sharoitida davlat xaridlarini raqamlashtirish namunasi sifatida qiziqish uyg'otadi. Yevropa raqamli xarid tizimining muhim vositalaridan biri *TED – Tenders Electronic Daily* portali bo'lib, u Yevropa Ittifoqining rasmiy portali hisoblanadi. Unda YEI Rasmiy jurnaliga ilova sifatida joylashtiriladigan xarid e'lonlari berib boriladi. *European Commission* ma'lumotlariga ko'ra, TED har yili qiymati 815 milliard yevrodan ortiq bo'lgan qariyb 800 mingta xarid xabarnomasini e'lon qiladi (European Commission, 2024).

Yevropa tizimi uchun *eForms* – xarid ma'lumotlarini e'lon qilishga mo'ljallangan yagona elektron shakllarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Ushbu shakllar 2023-yil oktabr oyidan majburiy bo'lib, ular shaffoflikni oshirish, ma'muriy yukni kamaytirish, ma'lumotlar sifatini yaxshilash va axborot tahliliga asoslangan qarorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Korruptsiyaga qarshi siyosat uchun bu muhim ahamiyatga ega, chunki standartlashtirilgan ma'lumotlarni solishtirish, tahlil qilish va shubhali xarid amaliyotlarini aniqlashda foydalanish ancha oson (Publications Office of the European Union, n.d).

Germaniya va umumyevropa tajribasi xaridlarni raqamlashtirish axborot tizimlarining o'zaro mosligi bilan birga olib borilishi kerakligini ko'rsatadi. Agar ma'lumotlar turli platformalarda va turli formatlarda joylashtirilsa, bu tahlil, nazorat va jamoatchilik monitoringini qiyinlashtiradi. Shu bois raqamlashtirishning muhim elementi nafaqat arizalarni elektron topshirish, balki yagona klassifikatorlar, majburiy ma'lumot maydonlari, mos platformalar va xarid axborotini keyingi tahlil qilish vositalaridan foydalanishdir (Publications Office of the European Union, n.d; Federal Government of Germany, 2024).

Singapur davlat xaridlarini raqamlashtirishda boshqacha, ammo samarali yondashuvni namoyon etadi. Asosiy raqamli platforma *GeBIZ* bo'lib, u davlat xaridlarining yagona elektron

portali hisoblanadi. Ushbu portal orqali yetkazib beruvchilar davlat organlari bilan o'zaro aloqaga kirishishi, xarid imkoniyatlarini izlashlari va elektron tartib-taomillarda ishtirok etishlari mumkin. Xarid ma'lumotlarini yagona platformada markazlashtirish biznesning davlat buyurtmalaridan foydalanishini soddalashtiradi va axborotning yopiq bo'lib qolishi xavfini kamaytiradi (Ministry of Finance Singapore, 2025a; *GeBIZ* Singapore, 2024).

Singapur Moliya vazirligi xarid jarayoni davlat mablag'larining samarali va shaffof sarflanishini, narx va sifatning maqbul nisbatiga erishishni, ochiq va adolatli raqobatni, tartib-taomillarning halolligini hamda jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi. Bu Singapurda raqamlashtirish nafaqat texnik vosita, balki davlat boshqaruvi umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralishini ko'rsatadi (Ministry of Finance Singapore, 2025a; Ministry of Finance Singapore, 2025b).

Singapur tajribasi raqamli platforma protsessual intizom bilan uyg'unlashishi kerakligini ham tasdiqlaydi. Xaridlarning ochiqligi, axborotdan teng foydalanish, baholash mezonlarining aniq bo'lishi, funksiyalarni taqsimlash va asosiy bosqichlarda nazorat favoritizm hamda yetkazib beruvchini asossiz tanlash xavflarini kamaytiradi. Shu bilan birga, ayrim xarid turlari uchun tartib-taomillarni soddalashtirish nazoratning susayishini anglatmasligi kerak: barcha harakatlar raqamli tizimda qayd etilishi va keyingi tekshiruv uchun ochiq bo'lishi lozim (*GeBIZ* Singapore, 2024).

Ushbu tajribalarni qiyosiy baholash shuni ko'rsatadiki, AQSH modeli ochiq ma'lumotlar va hisobotdorlik orqali kuchli, Yevropa modeli ma'lumotlarni standartlashtirish va platformalararo moslik orqali samarali, Singapur modeli esa markazlashgan boshqaruv va protsessual intizom orqali natijador hisoblanadi. O'zbekiston uchun birgina modelni to'liq ko'chirish maqbul emas. Chunki milliy tizimda bir nechta elektron operatorlar, turli buyurtmachilar, mahalliy va respublika darajasidagi xaridlar hamda alohida nazorat organlari mavjud. Shuning uchun eng to'g'ri yondashuv – ushbu uch tajribaning kuchli jihatlarini milliy huquqiy tizimga mos holda uyg'unlashtirishdir.

**Jadval**  
**Davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha**  
**xorijiy tajribaning qiyosiy tavsifi**

| Mamlakat / tizim | Asosiy raqamli vositalar                                                              | Korrupsiyaga qarshi ahamiyati                                                                                                                                      |
|------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| AQSH             | <i>SAM.gov, FPDS, USAspending.gov, API</i> va ochiq ma'lumotlar                       | Tadbirkorlar va yetkazib beruvchilar uchun davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, ommaviy hisobot, shartnoma ma'lumotlarini tahlil qilish |
| Germaniya        | <i>TED, eForms</i> , xarid xabarnomalarini elektron e'lon qilish                      | Ma'lumotlarni standartlashtirish, yirik xaridlar shaffofligi, transchegaraviy raqobat                                                                              |
| Singapur         | <i>GeBIZ</i> , ishtirok etishning yagona qoidalari, baholash mezonlarini e'lon qilish | Ma'lumotlarni markazlashtirish, tushunarli tartib-taomillar, yetkazib beruvchilar uchun teng imkoniyat                                                             |

Shu bilan birga, O'zbekiston davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish alohida tartib-taomillarni elektron shaklda o'tkazishdan to'laonli raqamli ekotizimga o'tishni talab etadi. 2025-yilda davlat xaridlari sohasida qariyb 25 mingga murojaat va shikoyat kelib tushgani tartib-taomillarni tashkil etish, shartnomalarni rasmiylashtirish muddatlari, to'lov intizomi va inson omilini kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi (Government of Uzbekistan, 2026). Mazkur ko'rsatkich muammoning faqat texnik emas, balki institutsional xarakterga ega ekanini ham anglatadi: elektron tizim mavjud bo'lsa-da, xarid ma'lumotlarining sifati, nazoratning tezkorligi, shikoyatlarni tahlil qilish va buyurtmachilar javobgarligi masalalari tizimli yechimni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston amaliyotidagi asosiy muammolarni to'rt guruhga ajratish mumkin. Birinchidan, xarid jarayonining barcha bosqichlari bo'yicha yagona va majburiy ochiq ma'lumotlar standarti yetarli darajada shakllanmagan. Ikkinchidan, shubhali xarid amaliyotlarini oldindan aniqlovchi avtomatlashtirilgan indikatorlar tizimi to'liq ishlamaydi. Uchinchidan, elek-

tron xarid platformalarining soliq, g'aznachilik, yuridik shaxslar, manfaatdorlikka oid reyestrlar bilan integratsiyasi korrupsiya xavflarini real vaqt rejimida aniqlash darajasiga yetmagan. To'rtinchidan, shartnoma ijrosi, qabul qilish dalolatnomalari, to'lovlar va shartnoma shartlaridagi o'zgarishlar bo'yicha jamoatchilikka qulay tahliliy kuzatuv vositalari cheklangan.

Shunday qilib, xorijiy tajriba davlat xaridlarini raqamlashtirish faqat xaridni e'lon qilish bosqichida emas, balki xarid davomiyligining barcha bosqichlarida shaffoflikni oshirishga qaratilishi kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston uchun ochiq ma'lumotlarni rivojlantirish, xarid axboroti sifatini oshirish, xavflarni avtomatik aniqlash, davlat reyestrlari bilan integratsiya qilish, shartnomalar ijrosini nazorat qilish va jamoatchilik monitoringini kengaytirish alohida ahamiyatga ega. Aynan kompleks yondashuv korrupsiya xavflarini kamaytirish, raqobatni oshirish va davlat mablag'laridan yanada samarali foydalanishni ta'minlaydi (OECD, 2025).

Ushbu kompleks yondashuvni amaliyotga joriy etish uchun O'zbekistonda davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha huquqiy-amaliy mexanizmini bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va qonunosti hujjatlarida xarid jarayonining barcha bosqichlari bo'yicha e'lon qilinishi shart bo'lgan ochiq ma'lumotlar ro'yxati aniq belgilanishi lozim. Bunda xarid rejasi, texnik topshiriq, baholash mezonlari, ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar, g'olibni aniqlash natijalari, shartnoma narxi, shartnomaga kiritilgan o'zgarishlar, ijro holati, qabul qilish dalolatnomalari va to'lovlar yagona identifikator orqali o'zaro bog'langan holda yuritilishi kerak.

Ikkinchi bosqichda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avtomatik tarzda aniqlash imkonini beruvchi indikatorlar tizimini joriy etish zarur. Bunday xavf indikatorlari sirasiga quyidagilar kiradi: xaridning faqat bitta ishtirokchi bilan o'tkazilishi, muayyan yetkazib beruvchining tizimli ravishda g'olib bo'lishi, xarid hajmining sun'iy ravishda bo'laklarga bo'linishi va baholash mezonlarining haddan tashqari tor belgilanishi. Shuningdek, shartnoma qiymatining bozor narxidan sezilarli darajada farq qilishi, shartnoma shartlariga ko'p marotaba o'zgartirishlar kiritilishi, xarid tartib-taomillari muddatlarining asossiz qisqartirilishi hamda ish-

tirokchilar o'rtasidagi affillanganlik belgilarining mavjudligi ham shunday indikatorlar sirasidandir. Mazkur indikatorlar asosida shakllanadigan avtomatik ogohlantirish tizimi nazorat organlari, ichki audit xizmatlari va jamoatchilik monitoringi uchun ochiq bo'lishi lozim.

Uchinchi bosqichda elektron davlat xaridlari platformalarini soliq organlari, g'aznachilik, yuridik shaxslar reyestri, sud qarorlari, insofsiz ijrochilar ro'yxati va manfaatlar to'qnashuviga oid ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish zarur. Bunday integratsiya buyurtmachi va yetkazib beruvchi o'rtasidagi yashirin manfaatdorlikni, soliq qarzdorligini, taqiqlarni va takroriy shubhali aloqalarni xarid yakunlanishidan oldin aniqlash imkonini beradi.

To'rtinchi bosqichda shartnomalar ijrosini raqamli kuzatish moduli kuchaytirilishi kerak. Xarid natijasi e'lon qilinganidan keyingi bosqich – tovar yetkazilishi, xizmat ko'rsatilishi, ish bajarilishi, qabul qilish dalolatnomasi, to'lov va kafolat majburiyatlari – korrupsiyaga nisbatan eng zaif nuqtalardan biridir. Shu sababli shartnoma ijrosi bo'yicha har bir harakat elektron qayd etilishi, vaqt belgisi bilan saqlanishi, mas'ul shaxslar kesimida ko'rinishi va keyingi audit uchun o'zgarmas raqamli iz sifatida mavjud bo'lishi zarur.

### Xulosa

O'tkazilgan tahlil natijasida davlat xaridlarini raqamlashtirish korrupsiya xavflarini kamaytirishning samarali vositasi bo'lishi mumkinligi, biroq uning ta'siri platformaning mavjudligi bilan emas, balki ma'lumotlar sifati, integratsiya, avtomatik xavf tahlili, shartnoma ijrosi monitoringi va jamoatchilik nazorati bilan belgilanadi, degan ilmiy xulosaga kelindi. Demak, raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi alohida texnik chora emas, balki huquqiy, tashkiliy va axborot-tahliliy mexanizmlardan iborat kompleks boshqaruv modelidir.

AQSH tajribasi ochiq ma'lumotlar, API, ommaviy hisobot va xarid ma'lumotlari sifatini nazorat qilishning muhimligini ko'rsatadi. O'zbe-

kiston uchun bu xaridlar bo'yicha yagona ochiq ma'lumotlar standartini joriy etish, har bir xaridga yagona identifikator berish, ma'lumotlarni mashinada o'qiladigan formatda e'lon qilish va platformalarda joylashtirilayotgan axborotning to'liqligi hamda ishonchligini muntazam tekshirish zarurligini anglatadi (U.S. Government Accountability Office, 2024).

Germaniya va Yevropa Ittifoqi tajribasi xarid ma'lumotlarini standartlashtirish, yagona elektron shakllardan foydalanish, raqamli tizimlarning o'zaro integratsiyasini ta'minlash hamda yirik xaridlar bo'yicha axborotni majburiy e'lon qilish muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bu turli elektron xarid operatorlari uchun majburiy ma'lumot maydonlari, yagona klassifikatorlar, yagona texnik protokollar va ma'lumot almashish standartlarini belgilashni talab qiladi (Federal Government of Germany, 2024).

Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish qat'iy protsessual intizom, aniq vakolatlar, baholash mezonlarining shaffofligi va buyurtmachilar hisobdorligi bilan uyg'un bo'lgandagina samarali ishlaydi. O'zbekiston uchun bu – xarid komissiyalari va buyurtmachilar mas'uliyatini kuchaytirish, baholash mezonlarini asoslash majburiyatini belgilash, shartnoma ijrosidagi o'zgarishlarni ochiq e'lon qilish va har bir qaror bo'yicha elektron asoslantirish talabini joriy etishni anglatadi (Ministry of Finance Singapore, 2025a).

Shunday qilib, O'zbekiston uchun eng samarali yo'nalish AQSH tajribasidagi ochiq ma'lumotlar va raqamli hisobotni, Yevropa tajribasidagi standartlashtirish va platformalararo moslikni, Singapur tajribasidagi markazlashgan boshqaruv hamda protsessual intizomni birlashtirgan kompleks modelni shakllantirishdan iborat. Mazkur model davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobat muhitini kengaytirish, mansabdor shaxslarning subyektiv ta'sirini kamaytirish, korrupsiya xavflarini erta aniqlash va byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

- Decarolis, F., & Giorgiantonio, C. (2022). Corruption red flags in public procurement. *EPJ Data Science*, 11(1). <https://doi.org/10.1140/epjds/s13688-022-00325-x>
- Dema, J. (2015). *The role of electronic procurement in preventing corruption*. SSRN. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2666437](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2666437)



- European Commission. (2024). *Tenders Electronic Daily*. [https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement/digital-procurement/tenders-electronic-daily\\_en](https://single-market-economy.ec.europa.eu/single-market/public-procurement/digital-procurement/tenders-electronic-daily_en)
- Federal Government of Germany. (2024). *Public procurement reform*. <https://www.bundesregierung.de/breg-en/news/public-procurement-2377348>
- GeBIZ Singapore. (2024). Government procurement guide for suppliers. [https://www.gebiz.gov.sg/docs/supplier\\_guide\\_detailed.pdf](https://www.gebiz.gov.sg/docs/supplier_guide_detailed.pdf)
- Government of Uzbekistan. (2026). *The public procurement system is being improved*. <https://gov.uz/en/icppa/news/view/149719>
- Lewis-Faupel, S., Neggers, Y., Olken, B. A., & Pande, R. (2016). Can electronic procurement improve infrastructure provision? *American Economic Journal: Economic Policy*, 8(3), 258–283. <https://doi.org/10.1257/pol.20140258>
- Ministry of Finance Singapore. (2025a). *Government procurement overview*. <https://www.mof.gov.sg/policies/government-procurement/overview/>
- Ministry of Finance Singapore. (2025b). *Procurement processes*. <https://www.mof.gov.sg/policies/government-procurement/procurement-processes/>
- OECD. (2023). *Public procurement performance: A framework for measuring efficiency, compliance and strategic goals*. [https://www.oecd.org/en/publications/public-procurement-performance\\_0dde73f4-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/public-procurement-performance_0dde73f4-en.html)
- OECD. (2025). *Digital transformation of public procurement: Good practice report*. [https://www.oecd.org/en/publications/digital-transformation-of-public-procurement\\_79651651-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/digital-transformation-of-public-procurement_79651651-en.html)
- Open Government Partnership. (2023). *Anti-corruption: Open contracting*. Open Gov Guide. <https://www.opengovpartnership.org/open-gov-guide/anti-corruption-open-contracting/>
- Publications Office of the European Union. (n.d.). *eForms standards and eForms SDK*. <https://ted.europa.eu/en/simap/eforms>
- Republic of Uzbekistan. (2021, July 24). *Law “On public procurement” (No LRU-684)*. Lex.uz. <https://lex.uz/en/docs/5382974?ONDATE=24.07.2021>
- SAM.gov. (2026a). *Contract opportunities*. <https://sam.gov/opportunities>
- SAM.gov. (2026b). *Contracting data and APIs*. <https://sam.gov/contracting>
- U.S. Government Accountability Office. (2024). *A snapshot of government-wide contracting for FY 2024*. <https://www.gao.gov/blog/snapshot-government-wide-contracting-fy-2024-interactive-dashboard>



# YURISPRUDENSIYA

---

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

**2026-YIL 3-SON**

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>